

## O'SMIRLAR XULQ-ATVORIDAGI BUZILISHLARNING NAMOYON BO'LISHI

*Zarnigora Alisherova. NamDPI 1-bosqich magistranti  
Norquziyev Izzatillo Chust tumani 10-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadal rivojlanib borayotgan zamonamizda o'smirlarda sodir bo'ladigan jismoniy va psixik o'zgarishlar, olimlarning o'smirlik davriga oid nazariyalari, ushbu yosh davrida xulq-atvordagi buzilishlarning namoyon bo'lishi, ularni keltirib chiqaruvchi omillar, deviant xulq-atvor shakllanishi, giyohvandlik, narkotik moddalarga addeksiya, gipodinamiya va yechimlar haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** O'smirlik, ongsiz intilish, jinsiy yetilish, akseleratsiya, individualizatsiya, deviant xulq-atvor, addeksiya, giyohvandlik, gipodinamiya

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются физические и психические изменения, происходящие у подростков в наше бурно развивающееся время, теории учёных о подростковом возрасте, проявления поведенческих нарушений в этом возрастном периоде, факторы, вызывающие их, формирование девиантного поведения, наркотическая зависимость, , наркотическая зависимость, гиподинамия и пути их решения.

**Ключевые слова и понятия:** Подростковый возраст, бессознательное желание, половое созревание, ускорение, индивидуация, девиантное поведение, зависимость, зависимость, гиподинамия.

**Abstract:** In this article, the physical and mental changes that occur in adolescents in our rapidly developing time, the theories of scientists about adolescence, the manifestation of behavioral disorders in this age period, the factors that cause them, the formation of deviant behavior, drug addiction, drug addiction, hypodynamia and solutions are described.

**Key words and concepts:** Adolescence, unconscious desire, puberty, acceleration, individuation, deviant behavior, addiction, hypodynamia

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlarga katta ahamiyat berilmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilishning tag zaminida ham yoshlarning ilmiy, ahloqiy, intellektual, ma'naviy salohiyatini yanada oshirish, bugungi zamon talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash yotadi.[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda" deb nomlangan asarlarida yoshlarga shunday ta'rif beriladi: "Yoshlar-xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi.

Keng ko'lamli islohotlarimizni samarali amalga oshishida ular hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg'or kasb-hunarlarini, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o'g'il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o'rin tutadi.”[2]

Hozirgi globallashuv zamonida o'smirlarni kamol topishining o'ziga xos xususiyatlari, xatti-harakatlari, motivlarining ifodalanishi, imkoniyatlari mavjud. Shuni alohida aytib o'tish joizki, o'smirlik davri 11(12)-15 yoshli qiz va yigitlarni o'z ichiga olib, taqlidchanligi, hissiyotlilikgi, asosiy nuqtai nazarining shakllanmaganligi, mardligi, o'ziga xos erkaliklari bilan boshqa yosh davrlaridan ajralib turadi.[3] O'smirlik davri bolalik bilan kattalik o'rtasidagi “ko'prik”ka qiyoslanadi. Bunday davrda bolalarning ham aqliy kamolotida, ham psixik jarayonlarida o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Shu tariqa o'smir va ota-ona, kattalar, o'qituvchilar orasida muammolar, tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu bosqichni boshidan o'tkazayotgan o'smir uchun bu qiyin davrdir. Bunday holat birinchi navbatda, o'smirning ta'lim jarayonida namoyon bo'ladi. Masalan, o'qituvchining dars o'tish shakli yoqmay qoladi, uni zeriktiradi, o'qishga bo'lgan qiziqishi susayadi. Dars mashg'ulotlariga mexanik xotiraga asoslangan holda tayyorgarlik ko'rib kelayotgan o'smir endi tafakkur qilib, mantiqiy xotira asosida ish tuta boshlaydi. Psixoanaliz asoschisi bo'lgan Zigmund Freyd va uning shogirdlari o'smirlik davrini baholashda insonga oldindan berilgan ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar.[4]. Lekin bu nazariya asossiz ekanligini, o'smirda imkoniyat va talabchanlik o'rtasidagi kelishmovchilik, o'zining ichki dunyosiga qiziqishning paydo bo'lishi, o'zini ko'rsatishga intilishini allaqachon psixologlar ta'kidlab o'tganlar. O'smirlik davrini ayrim psixologlar esa biologik omillarga, ya'ni, jinsiy yetilishga alohida ahamiyat beradilar. Lekin bu davrning psixologik holati faqat bitta omilga ega emas. O'smirlik davrida o'smirning “men”i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofdagilarga, ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi. Uning o'z shaxsiga bo'lgan e'tibori kuchayadi. O'smirlik davrida shaxs egosentrizmi boshqa davrlarga qaraganda eng yuqori darajaga yetadi. Bu davrda o'smir o'z shaxsiyatini boshqalardan ustun qo'yadigan, o'ziga ko'proq bino qo'yadigan bo'lib qoladi. Shu o'g'il bolalarda ham qiz bolalarda ham shunchaki kattalarga taqlid qilib emas, balki tom ma'noda o'zining xatti-harakatini nazorat qilish, o'zining yurish-turishi, tashqi ko'rinishiga astoydil e'tibor berish, pardozi-andoz bilan shug'ullanish kabi holatlar kuzatiladi. [5] O'smirlik davrida jinsiy bezlar faoliyati o'zining kulminatsion nuqtasiga yetadi. Balog'atga yetishning birlamchi va ikkilamchi belgilari ko'zga tashlana boshlaydi. Masalan, qizlarda ovozning tonining ingichkalashuvi, ko'krak bezlarining rivojlanishi kabilar bo'lsa, o'g'il bolalarda mo'ylov va soqollarning chiqishi, ovozning yo'g'onlashishi kabilar kuzatiladi. Buning natijasida boshqa jinsga qiziqish ortadi, nozik tuyg'ular, izzitirob, sog'inch, muhabbat kabi hislar paydo bo'ladi. O'smir jinsiy

yetilish sirlarining 17 foizini ota-onadan, 9 foizini o'qituvchilardan, 4 foizini maktab shifokoridan va qolgan yashirin jihatlari, holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'chako'ydan, o'rtoqlari va dugonalaridan eshitib bilib oladilar. Kutilmagan holatlar va ma'lumotlar ularning xatti-harakatini chigallashtiradi, yakkalik olamiga berilish boshlanadi, fe'l atvorda ayrim illatlar paydo bo'ladi. Goho o'smirlar orasida ahloqan tubanlashuv hollari ro'y berishi mumkin. Ularni bunday qiliqlardan, nopok guruh va to'dalardan xalos etish maqsadga muvofiqdir.[6] Bizning tevarak atrofimizda turli xil yomon illatlarni keltirib chiqaruvchi narsalar mavjud. Ular ayniqsa hali dunyoqarashi to'liq shakllanmagan o'smir uchun katta ta'sir ko'rsatadi. Internet tarmog'idagi o'smirlarga to'g'ri kelmaydigan turli xil saytlarda behayo surat, videoroliklar, kinolarga ruxsat berilishi, ko'chako'yda, hiyobonlarda, jamoat joylarida noo'rin qiliqlar ko'rsatishlari, ota-onalarda farzand tarbiyasiga doir bilimlarning yetishmasligi o'smir xulq-atvoridagi og'ishishlarning asosiy sababchilari bo'lib xizmat qiladi. Buning natijasida balog'atga erishish va jinsiy yetilishning jadallashishi ya'ni akseleratsiya sodir bo'ladi. Hozirgi kunda akseleratsiyaga doir bir necha nazariyalar mavjud: geliogen nazariya, geteroziya nazariyasi, urbanizatsiya nazariyasi, nutritiv nazariya, nurlanish nazariyasi, ijtimoiy sharoitning yaxshilanishi nazariyasi, ijtimoiy akseleratsiya nazariyasi. Yuqoridagi yondashuvlarning hech biri bir butun ilmiy nazariya emas. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, o'smirlik davri murakkab va ko'p ta'sirlarga bog'liq jarayon. Ushbu "o'tish davri"da o'smirlarda juda ko'plab qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar paydo bo'ladi. 5-6-sinf o'quvchilariga sinfdagi o'zi egallagan mavqega katta e'tibor berish xususiyati xos.[7-308]. Sinf jamoasidagi tutgan pozitsiyasini uzoq muddat ushlab turishga harakat qiladi. 6- sinfdan boshlab esa o'g'il va qizlar o'z tashqi ko'rinishlariga, qarama-qarshi jinsdagi bolalarga va ular bilan bo'ladigan munosabatlariga e'tibor bera boshlaydilar. Undan yuqori sinfga o'tgandan so'ng o'zlarida mavjud layoqatni rivojlantirishga qiziqish paydo bo'la boshlaydi. O'smirning komil shaxs bo'lib yetishishligi uchun oila asosiy rol o'ynaydi. Ammo ming afsuslar bo'lsinki, oiladagi turli xil sabablar tufayli kelib chiqadigan kelishmovchiliklar, ziddiyatlar voyaga yetayotgan o'smir xulq-atvorining o'zgarishiga, buzilishiga, hatto, suitsidial holatlarga ham olib kelishi mumkin. Ayrim ota-onalarda farzandlari boshidan kechirayotgan turli xil davrdagi krizislar haqida, u har bir bolada kuzatiladigan normal holat ekanligi haqida bilimlarning yetishmasligi asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Masalan, 3, 6, 13-14 yoshlarda muqarrar krizislar bo'lib o'tadi. Dunyoqarashlar o'rtasidagi nomutanosiblik paydo bo'ladi ya'ni ancha tajribaga ega bo'lgan ota-ona bilan inqiroz davrini boshdan kechirayotgan o'smir. O'smirlik davrida shaxs rivojlanishida individualizatsiya jarayoni ustunlik qiladi. Lekin shunga qaramay ota-onalar bolaga kasb tanlashda, do'st tanlashda, bo'sh vaqtini rejalashtirishda, bugungi kun talablariga mos kiyinishda va turli shunga o'xshash masalalarda ishlariga aralashishadi. Bu holat albatta o'smirlarga xush kelmaydi. Ba'zi

ota-onalarning ichkilikka mukkasidan ketishi ham o'smir ruhiyatida chuqur buzilishlarga olib keladi. Ma'lumotlarga ko'ra, muntazam ravishda alkogol iste'mol qilib yuradigan ota-onalardan tug'iladigan farzandlar asabiy, jahldor, qo'rs bo'lib voyaga yetishadi. Hozirgi zamonaviy dunyomizda o'qishda yoki uyda deysizmi, yoki biror biz xizmat ko'rsatish joylarida hamma sharoitlar yetarli darajada desak yolg'on gapirmagan bo'lamiz: Ovqat qilish uchun tayyor gaz plitalari, kir yuvish uchun turli xildagi kir mashinalar, uy tozalash uchun changyutkich, televizor, telefon, turli rusumdagi uzoqni yaqin qiluvchi avtomobillar, hattoki, idish-tovoq yuvadigan mashinalar ham mavjud.

Bularning foydali tomonlari bilan birga salbiy tomonlari yo'q emas. Birinchidan, gipodinamiya ya'ni kam harakatlilik, buning natijasida ortiqcha vazn to'planishi, turli xil yurak qon-tomir kasalliklarining kelib chiqishi jinsiy bezlardan ajralib chiqadigan garmonlarning, xususan, o'g'il bolalarda testosteron miqdorining past bo'lishi; Ikkinchidan, dangasalikni paydo qilishi, o'smirning kichik qiyinchiliklarga chiday olmay, yengil-yelpi hayot tarziga o'rganib qolishi, mehnat qilishga odatlanmaganliklaridir. Buning eng ajoyib yechimlaridan biri- bolaga yoshligidan boshlab vaqti-vaqti bilan sun'iy to'siqlar qo'yish orqali tarbiyalab borish. Yana bir yechimlaridan biri esa "2+1" qoidasi : ikkita aytganini qilish va bittasini rad etish. O'shanda bolada deviant xulq-atvor paydo bo'lish ehtimoli kamayadi. Chunki bolaga haddan tashqari e'tibor berish yoki e'tiborsizlik ham o'smirlik paytida xulq-atvor buzilishiga olib kelishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. T.:2022
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. O'qituvchi MU,2021
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli tasdiqlangan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning yangi tahriri
4. E. G'oziyev, Ontogenez psixologiyasi. Toshkent.:2022
5. Z. Alisherova "Akademik litsey o'quvchilarida xarakter aksentuatsiyasi ta'sirining psixologik xususiyatlari", NamDPI "Ta'lim va taraqqiyot" jurnalining 6-soni
6. G'. B. Shoumarov, I.O. Haydarov, N.A. Sog'inov, Oila psixologiyasi. Toshkent.:2015
7. I. Ya. Olimov, A.M. Nazarov, Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. Toshkent.:2020